



Marhabo UMURZOQOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD)

E-pochta: umurzakovamarkhabo@gmail.com

O'zXIA professori D.Lutfullayeva taqrizi asosida

THE STUDY OF THE CONCEPT OF LINGUISTIC PERSONALITY IN THE SOCIOPRAGMATIC ASPECT

Annotation

The article covers the study of the concept of linguistic personality in the sociopragmatic aspect. Social status and social role play an important role in the realization of a linguistic personality in a literary text. Communicators use lexical units corresponding to the speech situation based on their social status and role in the communication process. The imposition of a communicative goal and the use of appropriate pragmatic tactics are considered important factors in the realization of a linguistic personality in a literary text. The concept of a linguistic personality has been analyzed on the basis of a sociopragmatic approach.

Key words: Linguistic personality, social status, social role, pragmatic purpose, pragmatic tactics, speech act

ИЗУЧЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

Аннотация

Статья посвящена исследованию понятия языковой личности в социопрагматическом аспекте. Социальный статус и социальная роль играют важную роль в реализации языковой личности в художественном тексте. В процессе общения лица, вступающие в общение, используют лексические единицы, соответствующие речевой ситуации исходя из своего социального статуса и роли. Постановка коммуникативной цели и использование соответствующей прагматической тактики считаются важными факторами реализации языковой личности в художественном тексте. Понятие языковой личности проанализировано на основе социопрагматического подхода.

Ключевые слова: Языковая личность, социальный статус, социальная роль, прагматическая цель, прагматическая тактика, речевой акт.

LISONIY SHAXS TUSHUNCHASINING SOTSIOPRAGMATIK ASPEKTD A O'RGANILISHI

Annotation

Maqolada lisoniy shaxs tushunchasining sotsiopragmatik aspektida o'rganilishi haqida so'z yuritiladi. Lisoniy shaxsning badiiy matnda voqelanishida ijtimoiy mavqe va ijtimoiy rol muhim ahamiyatga ega. Muloqot jarayonida muloqotga kirishuvchi shaxslar ijtimoiy maqomi va roldan kelib chiqib nutq vaziyatiga mos leksik birliklardan foydalanadilar. Badiiy matnda lisoniy shaxsning voqelanishida kommunikativ maqsadning qo'yilishi, unga mos pragmatik taktika qo'llanilishi muhim omil sanaladi. Lisoniy shaxs tushunchasi sotsiopragmatik yondashuv asosida tahlil qilingan.

Key words: Lisoniy shaxs, ijtimoiy mavqe, ijtimoiy rol, pragmatik maqsad, pragmatik taktika, nutqiy akt

Kirish. Badiiy matnda lisoniy shaxsni sotsiopragmatik aspektida tadqiq etish muammosi tilshunoslikning ikki mustaqil yo'nalishi – sotsiolingvistika va pragmalogvistikaning umumiy masalalari kesishishi natijasida yuzaga kelgan deyish mumkin. Lingvopersonologiya nisbatan yangi soha sifatida tilshunoslikning turli yo'nalishlari, xususan, psixolingvistika, pragmalogvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika kabi fanlarni birlashtirib turuvchi lisoniy shaxs tushunchasini tadqiq qiluvchi soha sifatida shakllandi. "Lisonning tizimini ravishda kontekst bilan bog'liqligini o'rganish pragmatikaning vazifasidir. Turli ijtimoiy maqomga ega bo'lgan shaxslarning turli vaziyatlarda ma'lum pragmatik manbalardan foydalanishi sotsiolingvistik tahlil uchun ham muhimdir [7]. Bundan sotsiopragmatikaning tadqiq obyekti sotsiolingvistika va pragmalogvistikaning kesishgan umumiy masalalari ekanligini anglab olishimiz mumkin.

Sotsiopragmatika mustaqil ilmiy yo'nalishi sifatida dastlab xorij tilshunosligida yuzaga kelgan hamda asosiy e'tibor rasmiy ishbilarmonlik doiralarida og'zaki muloqot jarayonida qo'llaniladigan til birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 1983-yilda J. Lich tomonidan til birliklaridan foydalanishga maxsus sharoitlar ta'sir ko'rsatish usullarini aniqlash uchun ushbu atamaning kiritilishi kommunikativ vaziyatda tilni qabul qiluvchiga samarali ta'sir qilish modelini ishlab chiqish bilan boshlangan

edi [8]. Tilshunoslikda lisoniy shaxs sotsiopragmatik aspektida monografik planda o'rganilmagan bo'lsa-da, badiiy matndagi birliklar, xususan, personaj nomlarini qo'llash bilan bog'liq jihatlariga, ya'ni antroponimlarning sotsiopragmatik xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Atoqli otlarning pragmatik imkoniyatlarining ortib borishi, nutqiy jarayondagi o'sish-o'zgarish bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratish lozimligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan [8].

Badiiy matnda qo'llanilgan onomastik birliklar, xususan, antroponimlar personajlarga atab qo'yilar ekan, yozuvchining kommunikativ maqsadining amalga oshishiga ko'maklashadi. Personajlarning lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishida qo'yilgan shu maqsadlarning amalga oshishi muhimdir. O'zbek tilshunosligida yozuvchilarning asar qahramonlariga nom berish bilan bog'liq jihatlar tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan [1], [3]. Badiiy matnda qo'llanilgan onomastik birliklar (onimlar) tadqiqi personajlarning tipologik jihatdan tasnif qilishda quyidagi mezonlar asos bo'lishini ko'rsatadi:

1. Muloqot ishtirokchilarining gender xususiyatlaridagi o'ziga xosliklar
2. So'zlovchi tilidagi milliy mansublikni ko'rsatuvchi belgilar
3. Antropologik xususiyatlar
4. So'zlovchining yosh xususiyatlari
5. Ijtimoiy maqom.
6. So'zlovchining millati [8]

Tadqiqotlarda kommunikativ akt ishtirokchilarining lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishida turli omillar sabab bo'lsa-da, sotsiopragmatik tahlil jarayonida e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlar mavjud. Nutqiy muloqot jarayonida kommunikativ akt ishtirokchilari quyidagi nuqtayi nazardan tahlil qilinadi:

1. So'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy mavqeyi.
2. Ularning ijtimoiy roli.

O'zbek tilshunosligida lisoniy shaxs tiplari D.Niyazova tomonidan tadqiq qilingan. Tadqiqotchi O'.Hoshimov asarlari misolida lisoniy shaxs tiplari, ularning ifodalanishida leksik birliklarning o'rni maslasiga e'tibor qaratgan [5]. Badiiy matnlarning sotsiopragmatik xususiyatlari X.Yo'ldosheva tomonidan o'rganilgan bo'lsa, E.A'zam kinoqissalari tilini sotsiopragmatik aspektida M.Xolmurodova tadqiq qilgan [9]. Badiiy matnda lisoniy shaxsning voqelanishidagi omillar xususida ba'zi tadqiqotlarimizda so'z yuritganmiz [10,11,12].

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy matnlarda lisoniy shaxs voqelanishining o'ziga xos xususiyatlari, lisoniy shaxsning sotsiopragmatik aspektida o'rganilishi masalasini yoritishda tavsifiy, tipologik, semantik metodlardan foydalanildi. Diskursiv, sotsiopragmatik tahlil usullaridan yordamida lisoniy shaxsning voqelanishi sotsiopragmatik aspektda ochib berildi.

Tahlil va natijalar. Badiiy matnda lisoniy shaxsning namoyon bo'lishi yozuvchining tildan foydalana olish layoqati bilan birga, kuzatuvchanligi, har bir shaxsga, aniqrog'i, asarda lisoniy shaxs sifatida gavdalanirilishi nazarda tutilayotgan personajning ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy roliga qarab tildan qay darajada foydalana olishini ilg'ay olishi bilan belgilanadi. Har bir shaxs ma'lum bir til egasi sifatida ijtimoiy-pragmatik kompetensiyaga ega. Ijtimoiy-pragmatik kompetensiya shaxsda samarali muloqotni amalga oshirish, ma'lum bir kommunikativ vaziyatda ijtimoiy belgilardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Til egasi sifatida muloqotga kirishayotgan shaxs muloqotdan o'zi ko'zlagan maqsadga mos taktikani tanlaydi. Bu taktika muloqot jarayonida tildagi birliklardan mosini tanlashni, bu birlik ifodalashi mumkin bo'lgan yashirin ma'nolarni anglashi, kontekstda shu birlikning ifoda imkoniyatlarini ilg'ay olishishini talab etadi. Hatto tovushlarning talaffuzi ham tanlangan taktikaning amalga oshirilishi uchun xizmat qiladi.

Pragmatikada kommunikativ akt tushunchasiga adresant-adresat-nutq vaziyati-til kodi qolipida yondashilsa, sotsiopragmatik yondashuvda esa unga qo'shimcha axborot ham yuklanadi.

O'zbek tilshunosligida badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi X.Yo'ldosheva tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotda badiiy matnda lisoniy shaxsning sotsiopragmatik xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Ammo tadqiqotchi adresatning matn qabul qilishdagi ijtimoiy maqomlari haqida to'xtalar ekan, "adresat badiiy matnni mutolaa qilish yoki o'qilayotgan matnni eshitishi jarayonida uni idrok qiladi. Bunda u matnni idrok etuvchi shaxs maqomida bo'lib, kitobxon lisoniy shaxsi darajasiga ko'tariladi. Kitobxon lisoniy shaxsi tushunchasi matn yaratga olish qobiliyatiga ega bo'lgan hamda yaratilgan matnni o'qib yoki eshitib, uni idrok eta oluvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi" deya ta'rif beradi [2].

Badiiy matnda lisoniy shaxsning yorqin namoyon bo'lishida dialoglar muhim ahamiyatga ega. Tilshunos L.Raupova dialogik diskursning sotsial-nutqiy aloqada eng ko'p qo'llaniladigan shakllardan biri ekanligini ta'kidlaydi hamda uning imkoniyatlarini quyidagicha baholaydi: "Dialogik diskursda ifodalilik, ekspressivlik, elliptiklik shakllari ko'rinish turadi. Ular kommunikant dunyosi va xarakterini ochishda, individual obraz yaratishda, ularning ijtimoiy xulqini aniqlashda sotsial-nutqiy xarakteristika hisoblanadi" [6]. Badiiy matnda qahramonning lisoniy shaxs

sifatida namoyon bo'lishida dialoglar muhim ahamiyatga ega. Qahramonning nutq vaziyatida, ko'pincha kutilmagan holatda, notanish kommunikantlar bilan aloqaga kirishuvda uning lisoniy shaxs sifatidagi imkoniyatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

– Boshqasini yaxshi ko'rsang, ayt, qizim? – o'zini ikki-uch kun shu birgina savolga berish uchun tayyorlagan Gulchehra opa qizining xonasiga kira solib so'radi. Chunki biroz hayallasa, to'plab olgan jur'ati nimadir sabab bilan kemtilib qolishidan qattiq cho'chirdi (U.Hamdami). Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, badiiy matnda lisoniy shaxsning voqelanishida personaj qo'llagan gaplarning o'zining keltirish yetarli emas. O'zbek millatiga xos bo'lgan andisha, hayo kabi fazilatlar ona va qiz farzandning to'g'ridan to'g'ri muloqotga kirishuviga yo'l qo'ymaydi. Agar shu o'rinda muallif gapi keltirilmasa, voqelik o'quvchida shubha uyg'otadi, uni ishontira olmaydi. Ona o'zi tarbiyalagan, o'stirgan qizining xarakterini yaxshi biladi, undan osonlikcha sir ololmasligiga ham ko'zi yetadi. Shu sababli o'zini yaqin do'st maqomida ekanligiga ishontirishga harakat qiladi. "Anglashiladiki, diskurs lisoniy va nolisoiy vositalarning pragmatik "ansambl"i bo'lib, o'zida kommunikantlarning intensional faoliyatini propozitsional mazmun bilan uyg'unlashtirgan holda voqelaniradi. Bu faoliyat esa, o'z o'rnida muloqot intensiyasi, strategiyasi va taktikasi muvofiqligi natijasidagi nutqiy "yurish" va nutqiy "qadam"larning yo'nalishini ta'minlaydi" [6].

– Sani kasal qilib o'tirgandan o'shanga berib, kulganingni, odamlardek gapirib yurganingni ko'rganim tuzuk emasmi, qizim!... – ko'ziga yosh oldi ona. Bu o'rinda onaning maqsadi qizining ko'ngli kimda ekanligini aniqlash. Shu maqsadga erishish uchun ona qizini gaplariga ishontirish taktikasini qo'llaydi, kasal qilmoq –kulmoq so'zlarini zidlash orqali ma'noni kuchaytiradi, ta'sir o'tkazish maqsadida ko'ziga yosh oladi. Lisoniy shaxsning voqelanishida lingvistik vositalar bilan birga ekstralingvistik vositalar ham muhim sanaladi. Yozuvchi qahramon nutqida qo'llagan leksik birliklar bilan birga uning ruhiy holatining tasvirini berishi lisoniy shaxsning to'la gavdalanishida vosita bo'lib xizmat qiladi.

– Rostdanmi, oyi?! – dabdurstdan tilga kira qoldi Sabo.

– Rost bo'lmay, yo'g'on bo'larmidi, jon bolam!.. Voy! – ko'zyoshlarini salfetka bilan artayotgan Gulchehra opa tuyqusdan to'xtab, go'yo nima voqea yuz berganini endi anglab yetgandek hayajon ila xitob qildi, – Voy, jonim, san gapirdingmi?! (U. Hamdami)

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bir lisoniy shaxs bir paytning o'rnida bir necha ijtimoiy maqomda bo'ladi, bir paytning o'zida bir necha ijtimoiy rollarni bajaradi. Yozuvchining mahorati personaj xarakteridan kelib chiqib uning o'ziga xos xususiyatlarini so'z vositasida ochib berishida, uning o'ziga xos boshqalarnikidan ajralib turadigan nutqini ko'rsatib berishi bilan belgilanadi.

Quyida bir lisoniy shaxsning bir necha ijtimoiy mavqeda lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishini tahlil qilamiz.

– Biz bir oilamiz. Dunyoda oiladan muqaddasroq narsa yo'q. Hamma narsadan voz kechish mumkin, lekin oiladan, uning a'zolaridan, oila oldidagi burchdan, qarzdin bo'yin tovlab bo'lmaydi... (U.Hamdami) Muloqotga kirishayotgan so'zlovchi qo'llagan leksik birliklardan uning qanday ijtimoiy maqomda ekanligini ilg'ash mumkin. So'zlovchi oila boshlig'i, tinglovchilar oila a'zolari. Buni so'zlovchining burch, qarz so'zlaridan anglash mumkin. So'zlovchining pragmatik maqsadi oilaning muqaddas ekanligini uqtirishdan iborat, shuning uchun tanlangan har bir leksik birlik shu maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan. So'zlovchining ijtimoiy maqomi keyingi gaplardan oshkor bo'ladi.

